

BADIY TARJIMANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Majidova Dilnora Asliddin qizi

*BuxDU filologiya fakulteti lingvistika:
o'zbek tili yo'nalishi I-bosqich magistri*

Annotatsiya: Maqolada tarjimaning murakkab jarayon ekanligi, tilshunoslik, psixologiya, madaniyat, adabiy jarayon va boshqa omillarni o'z ichiga olishi, ilmiy-nazariy o'rghanish ob'yekti bo'lishi zarurligi haqida fikr yuritiladi. Asliyatdagi ma'noni tarjima tilida bera olish uchun tarjimon nimalarga e'tibor qaratishi lozimligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Tarjima, qiyosiy tilshunoslik, ilmiy-nazariy, tahlil, rasmiy nutq, konnotativ xususiyat, madaniyat.

Аннотация: В статье рассматривается тот факт, что перевод представляет собой сложный процесс, включающий в себя языкоизнание, психологию, культуру, литературный процесс и другие факторы, и должен быть объектом научно-теоретического изучения. Анализируется, на что переводчику следует обратить внимание, чтобы передать исходный смысл в переведимом языке.

Ключевые слова: Перевод, сравнительное языкоизнание, научно-теоретические, анализ, официальная речь, коннотативное свойство, культура.

Annotation: The article discusses the fact that translation is a complex process that includes linguistics, psychology, culture, the literary process and other factors, and should be the object of scientific and theoretical study. It is analyzed what the translator should pay attention to in order to convey the original meaning in the translated language.

Key words: Translation, comparative linguistics, scientific and theoretical, analysis, official speech, connotative property, culture.

Tarjimada qiyosiy tilshunoslik yutuqlaridan unumli foydalaniladi. Tarjimada qiyosiy tahlildan maqsad, tarjima jarayonidagi umumiyligini qoidalarni o'rghanishdir. Tarjimaning qiyosiy tahlili so'z va gaplarning qiyosiy tahlil natijasi sifatida qabul qilingan fakt (dalil) larga asoslangan. Ingliz tilidagi so'zlar bilan boshqa tildagi so'zlarning turli xil xususiyatlarini qiyosiy o'rghanish ingliz va boshqa tillardagi so'zlarning turli xil xususiyatlari mavjud ekanligini ko'rsatadi¹.

Tarjima murakkab jarayon bo'lib, tilshunoslik, psixologiya, madaniyat, adabiy jarayon va boshqa omillarni o'z ichiga oladi. Tarjimaning har xil aspektlari yuqorida foydalanilish mumkin. Shu kungacha tarjima ustida olib borgan ko'pchilik nazariy-Ilmiy tadqiqotlar tilshunoslardan amalga oshirilgan².

So'z shakli o'zaro bog'langan so'zlarning semantik tuzilishi va ularning nutqda ishlatalishi turli xil tillarda turlichadir. Har bir tilning o'z leksik tuzilishi mavjuddir. Lekin hamma ma'nolarida emas,

¹ Andre Lefevere. (2001). Translation / History / Culture. Australia. 56-59.

² Bloomfield, L. (1999). Language. New York. 101-104.

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

ya'ni ingliz tilidagi so‘zning ma'nosini ifodalovchi o‘zbek tilidagi so‘zni topish mumkin. Misol uchun, “hand” so‘zining ma'nolarini uning ma'nosini ifodalovchi “qo‘l” so‘zi bilan taqqoslang³.

O‘zbek tilidagi so‘zning semantik tuzilishida shu so‘zning ma'nosini ifodalovchi ingliz tilidagi so‘zda mavjud bo‘lmagan aniq shakliy ma'no mavjud bo‘lishi mumkin.

Ba'zi tillar sezilarli darajada maxsus ma'nolarga ega bo‘lgan so‘zlarga boy bo‘lib, boshqalari esa umumiy tushunchalarini ifodalaydi va ikkilamchi ma'nolarni rad etadi. Fransuz tili odatda juda ham mavhum til hisoblansa, nemis tili esa aniq, o‘ziga xos tushunchalarga boy til hisoblanadi.

Shuni aytish kerakki, tarjimada so‘z tanlashga ta'sir qiladigan yosh, jins va bilim faktorining mavjudligi sababli muloqot vaqtida ham ko‘p faktorlar mavjud. Turli xil lug‘at turli joyda qo‘llaniladi, kimningdir uyida, do‘stlari bilan odatiy suhbatida va h.k.

Rasmiy nutqning doirasi chegaralangan, norasmiy nutq esa odatda vaziyatga bog‘liq bo‘ladi. Yozishmalarda ham odatda rasmiylikka rioya etiladi va davlat idoralariga yozilgan xat bilan shaxsiy xatlar tili orasida ancha farqlar bo‘ladi. Texnik terminologiya ham maxsus konnotativ xususiyatga ega. Ba’zida insonlar jamiyatda bilish darajalarini yoki professional fikrlashni ko‘rsatish maqsadida texnik, kasb-hunarga doir lug‘atlardan foydalanadilar⁴.

Texnik so‘zlarning qo‘llanilishi bundan xabardor bo‘lmaganlarga tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Tarjimon kim bilan gaplashayotganligiga qarab texnik so‘zlarni qo‘llashi kerak. Tibbiy shifokorlar uchun tarjima qilingan byulleten “incision”, “lesion”, “tonsillectomy” kabi so‘zlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Hattoki bir tildagi lug‘at birliklar bir viloyat yoki mamlakatda bir xil qo‘llanilishi va bir ma’noni anglatishi boshqa viloyat yoki mamlakatda esa ikkinchi boshqa ma'nolarni ifodalashi mumkin⁵.

Misol uchun Qo‘shma Shtatlarda “cookie” - pechenye, Avstraliyada esa pechenye “biscuit” deb aytildi. Tarjimon viloyatlar orasidagi tilga doir farqlarni bilishi muhimdir va ko‘pchilikka tushunarli bo‘ladigan so‘zni qo‘llashi kerak. Agar kimdir mahalliy hududdagi so‘zlovchiga tarjima qilayotgan bo‘lsa, albatta, u o‘sha hududda ishlatiladigan shaklni tanlashi shart⁶.

Har bir madaniyatda belgili (symbolic) hisoblanadigan aniq harakat mavjud bo‘ladi. Agar harakat shunchaki so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, uning ma'nosi yo‘qqa chiqadi. Bu asosiy tilda muhim ma'noga qaratilmagan hech qanday harakat bo‘lmasa paydo bo‘ladi. Masalan: He nodded his head. Agar asliyat tilida bosh qimirlatish “ha” ni bildirsa va tarjima tili madaniyatida bunday belgi ma'noga ega bo‘lmasligi mumkin. Ba’zi madaniyatlarda bosh qimirlatish ijobiy emas salbiy ma'noga ega bo‘lishi ham mumkin.

Xulosa qilib aytganda tarjima xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi qudratli quroldir.

³ Catford, J. C. (1965). A Linguistic Theory of Translation. Oxford University Press. 45-49.

⁴ Norova, M. F. (2020). Connotative meanings in phonetic variants of verbal root-stems (As an example of English and Uzbek languages). *Theoretical & Applied Science*, (1), 439-442.

⁵ Fayzulloyevna, N. M. (2022). PSEUDO-INTERNATIONALISMS IN MEDICAL TRANSLATION. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 2(12), 13-20.

⁶ Fayzulloyevna, N. M. (2022). Classification of stylistic colouring words in the English language. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(6), 370-374.